



O‘SMIRLIK DAVRIDA DESTRUKTIV AXBOROTLARGA NISBATAN
MAFKURAVIY IMMUNITETNING TARKIB TOPISHI

Savriyeva Nozima Rahmatulloyevna
Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘smirlilik davrida destruktiv axborotlarga qarshi mafkuraviy immunitetning shakllanishi tahlil qilinadi. O‘smirlar – rivojlanishning muhim bosqichida bo‘lgan shaxslar bo‘lib, ular tashqi axborotlar va turli mafkuraviy ta’sirlarga ayniqsa sezgir. O‘smirlilik davrida axborot manbalarining salbiy ta’siri va manipulyatsiya qilish usullari tobora keng tarqalib bormoqda, bu esa ularning psixologik holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mafkuraviy immunitet, ya’ni axborot va mafkuralarga nisbatan qarshilik ko‘rsatish, o‘smirning shaxsiyligi va dunyoqarashini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu ishda, o‘smirlarning destruktiv axborotlarga qarshi qanday psixologik himoya mexanizmlari rivojlanishi va mafkuraviy immunitetning shakllanish jarayonlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, bu jarayonda o‘smirlarning emotsional va kognitiv rivojlanishi, shuningdek, ular bilan ishlashda qo‘llaniladigan psixokorreksion usullar tavsiflanadi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlilik davri, destruktiv axborot, mafkuraviy immunitet, psixologik himoya, kognitiv rivojlanish, psixokorreksiya, shaxsiy dunyoqarash, mafkuraviy qarshilik, psixologik himoya mexanizmlari.

Kirish. O‘smirlilik davriga kelib bola organizmi jadallik bilan va nomutanosib o‘sadi. Bu o‘sish ba’zan bolaning o‘zini yomonroq his qilishga va ayrim fiziologik kasalliklarni kelib chiqarishga sabab bo‘lishi mumkin. Bu xolatlarning barchasi bolani tashvishga soladi va uning asabiylashiga olib keladi. O‘zini katta bo‘lib, o‘zgarayotganini his qilgan o‘smirda endi kattalar xayoti bilan yashash ehtiyoji yuzaga kela boshlaydi. O‘smir o‘zini kattalardek to‘tishga, katta bo‘lib qolganini ko‘rsatishga xarakat qila boshlaydi. Juda ko‘pgina o‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichmliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o‘zini normal yaxshi his qilmagan o‘smir juda qattiq tashvishga tushadi va undan krizis xolati yuzaga keladi [1]. Shuningdek, bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi shuning psixikasidagi o‘zgarishlar bilan xam bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeい o‘zgaradi o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosobatlar yuzaga keladi. Lekin, eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. O‘smirda aksariyat xollarda o‘zidan qoniqmaslik xolati kuzatiladi. O‘zi xaqidagi mavjud fiklarning bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni ikkinchi tomondan tashvishlantirib asabiylashishiga sabab bo‘ladi. Bu esa bolada o‘zi xaqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar ko‘pincha otaonasiga qarshi chiqayotganini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu xolat ham o‘zlarining ichidan asabiylashishlariga sabab bo‘ladi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Kattalarning bu davrdagi eng asosiy vazifalari o‘smirning muammosini to‘g‘ri anglashi va erkin, to‘g‘ri yashashiga yordam berishidair [2].

O‘smirlilik davri 10–11 yoshdan 14–15 yoshgacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Ko‘pchilik o‘quvchilarda o‘smirlilik yoshiga o‘tish asosan 5–sinfdan boshlanadi. «Endi u bola emas—u, hali katta ham emas» - bu formula o‘smirlilik davri xarakterini bildiradi. Bu yoshda o‘smir rivojida keskin o‘zgarishlar ro‘y bera boshlaydi. Bu o‘zgarishlar fiziologik, hamda psixologik o‘zgarishlardir. Fiziologik o‘zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog‘liq ravishda tanadagi barcha a‘zolarning mukammal rivojlanishi va o‘sishi, xujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllana boshlashidir. O‘smirlar organizmdagi o‘zgarishlar bevosita ularda endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekresiya bezlaridan biri gipofez bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki sekresiya bezlarining (qalqonsimon bez, buyrak o‘sishi va jinsiy bezlar) ishlashini kuchaytiradi. Natijada bo‘y o‘sishi tezlashidi, jinsiy balog‘atga yetish (jinsiy organlarning rivojlanishi, ikqilamchi jinsiy bezlarning paydo bo‘lishi) amalga oshadi [3].

O‘smirlar o‘zlarini kattalardek tutishga xarakat qiladilar. Ular o‘zlarining layoqat, qobiliyat va imkoniyatlarini ma’lum darajada o‘rtoqlari va o‘qituvchilarga ko‘rsatishga intiladilar. Bu xolatni oddiy kuzatish yo‘li bilan xam osongina ko‘rish mumkin. O‘smirlilik yoshiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rgana turib, o‘smirlar shaxsining shakllanib, rivojlanib, kamolatga erishish yo‘llarini va unga ta’sir etadigan biologik va ijtimoiy omillarning bevosita ta’sirini tushunish mumkin. Bu davrda o‘smir baxtli bolalik bilan xayrashgan, lekin kattalar hayotida hali o‘z o‘rnini topa olmagan xolatda bo‘ladi. O‘smirlilik davri «O‘tish davri», «Krizis davri», «Qiyin davri» kabi nomlarni olgan psixologik ko‘rinishlari bilan xarakterlanadi. Chunki bu yoshdagi o‘smirlar xatti-xarakatida noadekvatlik, yangi sharoitlarda o‘z o‘rnini topa olmaganligidan psixik portlash hollari ham kuzatiladi. O‘z davrida L.S.Vigotskiy bunday xolatni psixik rivojlanishdagi krizis deb nomlagan. O‘smirlilik yoshida ularning hulq– atvoriga xos bo‘lgan alohida hususiyalarni asosan jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo‘lmaydi. Jinsiy yetilish o‘smir hulq– atvoriga asosiy biologik omil sifatida ta’sir ko‘rsatib, bu ta’sir bevosita emas, balki ko‘proq bilvositadir [3,4].

O‘smirlilik davriga ko‘pincha so‘zga kirmaslik, o‘jarlik, tajanglik, o‘z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi xususiyatlar xos. Kattalarga nisbatan agresiv munosabatning paydo bo‘lishi, negativizm singari nohush hulq–atvor alomatlari o‘z–o‘zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy yetilish tufayli paydo bo‘ladigan belgilar bo‘lmay, balki ular bilvositada ta’sir ko‘rsatadigan o‘smir yashaydigan ijtimoiy shart–sharoitlar vositasi orqali: uning tengdoshlari, turli jamoalardagi mavqeい tufayli, 11 kattalar bilan munosabati, makkab va oilasidagi o‘rni munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirish yo‘li bilan o‘smirlarning hulq–atvoriga to‘g‘ridan–to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatish mumkin. O‘smirlar nixoyatda taqlidchan bo‘lib, ularda hali aniq bir fikr,





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



dunyoqarash shakllanmagan bo‘ladi. Ular tashqi ta’sirlarga va hissiyotlarga juda beriluvchan bo‘ladilar. Shuningdek, ularga mardlik, jasurlik, tantiqlik ham xosdir [5].

Tashqi ta’sirlarga beriluvchanlik o‘smirda shaxsiy fikrni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi, lekin bu shaxsiy fikr aksariyat hollarda asoslanmagan bo‘ladi. Shuning uchun ham ular ota-onalarning, atrofdagi kattalarning shuningdek, ustozlarning tug‘ri yo‘lni ko‘rsatishlariga qaramay o‘z fikrlarini o‘tkazishga xarakat qiladilar. Juda ko‘p o‘smirlar bu davrda chekish hamda spirtli ichimliklarga qiziqib qoladilar. Katta odam, shuningdek chekuvchi, ichuvchi singari yangi rolda o‘zini normal, qulay his qiladi. Bunday xolatlarga tushgan o‘smir juda tashvishga tushadi va unda krizis holati yuzaga keladi. Bu krizis o‘smirning ma’naviy o‘sishi, shuningdek, psixikasidagi o‘zgarishlar bilan ham bog‘liqdir. Bu davrda bolaning ijtimoiy mavqeい o‘zgaradi, o‘zining yaqinlari, do‘stlari, tengdoshlari bilan yangi munosabatlar yuzaga keladi. Lekin eng katta o‘zgarish uning ichki dunyosida yuzaga keladi. Ko‘pgina o‘smirlarda o‘zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o‘zi xaqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga to‘g‘ri kelmayotganligi o‘smirni asbiylashishiga olib keladi. Bu esa o‘smirda o‘zi xaqida salbiy fikr va qo‘rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba’zi o‘smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, shuningdek, ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularning ichdan asbiylashishlariga sabab bo‘ladi va o‘smirlik davri krizisi deyiladi [6].

O‘smirlik davrida yetakchi faoliyat—bu o‘qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O‘smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do‘stlik, o‘rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O‘smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to‘la o‘rtoqlik kodeksiga bo‘ysinadi. O‘smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti asosan ularning katta bo‘lganlik hissi asosida tuzilgan bo‘ladi. Ular kattalar tomonidan qilinadigan xaq-xuquqlarini cheklashlariga, qarshilik va eotirozlariga qattiq qayg‘uradilar. Lekin shunga qaramasdan u muloqotda kattalarning qo‘llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o‘smirga kattalarni yaxshiroq tushinislari uchun yordam beradi.

Xulosa. O‘smirlik davrida destruktiv axborotlarga qarshi mafkuraviy immunitetning shakllanishi muhim psixologik jarayon bo‘lib, o‘smirlarning axborotning salbiy ta’siriga qarshi kurashish salohiyatini oshiradi. O‘smirlar bu davrda ko‘plab yangi axborotlar va mafkuraviy ta’sirlarga duch keladi, shuning uchun ularning psixologik himoyasi va mafkuraviy immuniteti rivojlantirish zarurati ortib bormoqda. Psixokorreksion ishlar va kognitiv-emotsional rivojlanish, o‘smirlarni axborotning manipulyativ ta’sirlaridan himoya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, o‘smirlarning o‘z fikrini mustaqil shakllantirishi va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ularning destruktiv axborotlarga nisbatan immunitetini yanada kuchaytirish mumkin. Bu jarayon, nafaqat shaxsiy, balki jamiyat darajasida ham ahamiyatli bo‘lib, o‘smirlarning ma’naviy va intellektual rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-tom. – T.: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Dusmuxamedova Sh.A., Nishonova Z.T., Jalilova S.X., Karimova Sh. K., Alimbaeva Sh.T. “Yosh va pedagogik psixologiya” T. TDPU, 2013 .
3. Nishonova Z.T., Alimbaeva Sh.T., Sulaymonov M. “Psixologik xizmat”. T. “Fan va texnologiyalar” nashriyoti 2014 y.
4. Xaydarov F.I., Xalilova N. “Umumiy psixologiya”. T.: “Fan va texnologiyalar” markazining bosmaxonasi : 2009.
5. O‘smlarda destruktiv xulq ko‘rinishlarini shakllanishi psixologik diagnostikasi va korrektsiyasi. Magistrlik diss-si. Andijon.2016
6. Ziyomhammadov B., Ismoilov F. Barkamol avlodni voyaga yetkazish sirlari. - T.: Sano-standart, 2011. - 346 b.

